

MAKTAB DARSLIKLARIDAGI HUDUDIY MUAMMOLAR BILAN BOG‘LIQ MATERIALLAR

Ziyodaxon Ilxomjon qizi Usmanova

ChDPU o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

z.usmanova@cspi.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada “mashq” va “topshiriq” atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o‘rni hamda ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Maktab darsliklaridagi hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mashq, topshiriq, hudud, lahja, sheva, maktab darsliklari.

KIRISH

Maktab darsliklarida nazariy tushunchalarni o‘quvchilar ongiga singdirishda va shu asosda ularda malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishda mashq va topshiriqlarning o‘rni beqiyos.

Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyevaning ta‘lim mazmunini belgilab beruvchi omillarga dars, didaktik vositalar, ya‘ni maktab darsliklari bilan bir qatorda o‘qituvchini ham kiritishi nihoyatda to‘g‘ri yondashuv. Chunki til sathlarini o‘qitishda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar tovushning hosil bo‘lishidan tortib, uning yozuvda aks etishi, so‘zlarning hosil bo‘lishi hamda ularning nutqda qo‘llanish o‘rinlari, so‘z birikmasi va uning hosil bo‘lishi, so‘z qo‘shilmasi va qo‘shma so‘zlardan o‘zaro farqi, gap tuzish texnikasi, gap bo‘laklari va ularning ichki guruhlarga ajralishi, fikrni ifodalash usullarini bevosita o‘qituvchidan o‘rganadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta‘lim mazmunining yoyilmasi o‘qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining “Ona tili” darsliklarida til bo‘limlari doirasida tadqiq etiluvchi lisoniy va nutqiy hodisalarning ayrim holatlarda ta‘rif va tavsiflash bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, o‘zbek adabiy tilining paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi haqidagi qarashlar juda qadimiy tarixga ega.

Maktab “Ona tili” darsliklarida til bo‘limlari, jumladan so‘z birikmasining o‘rganilishiga keng o‘rin ajratilgan. 8-sinf ona tili darsligi to‘laligicha sintaksis, so‘z birikmasi va sodda gap sintaksisi tadqiqiga bag‘ishlangan. Lekin maktab darsliklarida mashq va topshiriqlar yetarlicha farqlanmaganligiga guvoh bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu o'rinda "mashq" va "topshiriq" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqida to'xtalish joizdir. Metodist M.Saidov o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshiriq"ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi.

Bizningcha, topshiriq va mashqlar o'zaro farqlanadi, o'quvchi mavzu yuzasidan yetarlicha nazariy bilimga ega bo'lgandagina mashqlarni bajara oladi va bunday mashqlarning shartlari takroriy bo'lishi tabiiy hol. Chunki o'quvchi takrorlar asosida ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Topshiriq mashqqa nisbatan torroq tushuncha bo'lgani bois, uni mashqning tarkibiy qismi sifatida keltirish mumkin. Ya'ni topshiriq o'quvchini fikrlashga undaydi, ma'lum maqsad sari yo'naltiradi, mustaqil ijodiy izlanishiga xizmat qiladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, har bir atama o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ya'ni, mashq ma'lum bir harakatni aniq ko'zlangan maqsad asosida malaka va ko'nikma hosil qilish uchun bir necha bor aynan takrorlash bo'lsa, topshiriq o'quvchining zimmasiga biror mazvuga yo'naltirish, ijodiy fikr bildirish yoki mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Maktab ona tili ta'limida nazariy bilimni o'rganishdan maqsad fikrni og'zaki va yozma tarzda grammatik to'g'ri va uslubiy aniqlik ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qo'llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o'rgatib borish talab etiladi. Mashqlar tizimi tushunchani o'zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o'quvchilar mustaqilligi o'sib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlash ko'zda tutiladi. Bu tizim mashqlarning o'zaro bog'lanishiga asoslangan. Bilimni shakllantirish xarakteriga asoslangan grammatik mashqlar ikki turga bo'linadi:

- a) morfologik mashqlar;
- b) sintaktik mashqlar.

Agar o'quvchilar faoliyatining xarakteri, ya'ni mashq jarayonida o'quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga,

guruhlashga, umumlashtirishga oid mashqlarga bo'linadi. Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga ko'ra sintetik-analitik mashq hisoblanadi.

O'zbek adabiy tili turli lahjalardan o'sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog'liq jiddiy muammolar bor. Maktab ona tili darsliklarini tuzishda, ayniqsa, so'z birikmasiga doir o'quv materiallarini berishda mualliflar aholi hududiy talaffuzining tilga ta'sirini inobatga olishlari kerakligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shu ma'noda dastur va darsliklar tuzishda sintaktik nuqtai nazardan har bir hududning talaffuzdagi muammolari e'tiborga olinishi lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Surxondaryo va Qashqadaryo vohasida ayrim boshqaruv munosabatli so'z birikmalarini tuzishda kelishik qo'shimchalarini qo'llash bilan bog'liq qator muammolarga duch kelamiz. Maktabda o'qimoq – maktabga o'qimoq. O'rin-payt kelishigi [-da] o'rnida [-ga] jo'nalish kelishigini qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Demak, surxondaryolik va qashqadaryolik o'quvchiga adabiy tilda so'zlash qonun-qoidalarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo'lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o'quv materiallarini aynan takrorlamaydigan topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o'qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Toshkent viloyati, Farg'ona, Andijon va Namangan, xususan, shahar hududida ommaviy tarzda [-ning] qaratqich kelishigi o'rnida muntazam [-ni] tushum kelishigi va tushum kelishigining tovush o'zgarishiga uchragan variant [-ti]ning ishlatilishi (akamning kitobi – akamni kitobi, ishning ko'zi – ishti ko'zi va b.), shuningdek, Xorazm viloyatining ayrim tumanlarida [-ga] jo'nalish kelishigi o'rniga [-a] shaklining qo'llanishida muammolar borligini aytish mumkin.

Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida O' unlisi o'rnida U unlisining yozilish holatlari ham imloviy savodxonlikka putur yetkazadi. Bunday orfografik xatolarni tuzatish uchun darslikdan tashqari mustaqil o'quv topshiriqlarining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi yaxshi samara beradi.

Ko'rinadiki, maktab ona tili darsliklarida yuqorida keltirilgan nutqiy muammolarni o'zlashtirishga mo'ljallangan nazariy ma'lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar yetarli emas. Mazkur muammolarni sanab o'tilgan hududlarning o'quvchilari nutqida adabiy me'yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo'llanmalarda deyarli e'tibor qaratilmagan maxsus fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik va stilistik mashqlar, tovush va qo'shimchalar talaffuzi, so'z birikmasi va

gap tuzish jarayonida lisoniy birliklardan unumli foydalangan holda soʻz valentliklarini tanlash va toʻgʻri jumla tuza olish koʻnikmalarini shakllantirishga oid alohida mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga ehtiyoj seziladi.

Shuningdek, [-ning] qaratqich kelishigini koʻpchilikning ham yozma, ham ogʻzaki nutqida notoʻgʻri qoʻllanilayotgani, uni bartaraf etishga qaratilgan saʼy-harakatlarning deyarli sezilmayotgani bu borada zarur tavsiyalar ishlab chiqishni va ularni zudlik bilan amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi.

XULOSA

Oʻquvchining ijtimoiy hayotda aloqa-aralashuvni toʻgʻri amalga oshirishida xizmat qila oladigan zaruriy maʼlumotlarni uning uzoq muddatli xotirasiga oʻtkazish uchun oʻsha maʼlumotlarni koʻp marta takrorlatish va xotirasida qayta tiklab turish lozim. Shu oʻrinda aytish mumkinki, til sathlari, xususan soʻz birikmasini oʻqitishda mashq va topshiriqlarning oʻquv materialini tashkil etuvchi sermazmun, purhikmat matnlardan oʻrinli foydalanilsa, oʻquvchi ularni bir-ikki takrorlash bilan uzoq muddatli xotirasiga “yozib qoʻyadi”. Biror jismoniy harakat avtomatlashish darajasiga yetishi uchun qancha uzluksiz mashq zarur boʻlsa, muayyan nutqiy malakaning shakllanishiga ham shuncha mashq, harakat kerak boʻladi.

Darslik yaratishda tilshunos olimlar psixologlar yordamidan foydalansa, ijobiy natijalarga erishish imkoniyati sezilarli darajada oshgan boʻlar edi. Chunki psixolog oʻquvchining yoshi va ruhiyati bilan bogʻliq muammolar va ularning yechimi, yosh xususiyatidan kelib chiqib ular uchun qiziq boʻlgan mavzular, mashgʻulotlar haqida yetarlicha va atroflicha maʼlumotga ega. Bu esa darslikni yanada qiziq va oʻquvchi uchun qadrli boʻlishini taʼminlaydi. Darsliklar sifatini yaxshilash faqat uning dizayni ustida emas, balki mavzu mundarijasini ham tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Soʻnggi yillarda darsliklar yaratishda muhim oʻzgarishlar koʻzga tashlanayotgani quvonarli hol. Bu borada tinmay izlanayotgan tilshunos olimlarimizga chuqur minnatdorchilik bildirgan holda, ularga amaliyotchi oʻqituvchilar bilan hamkorlik qilishni taklif etgan boʻlardik.

REFERENCES

1. ACHILOVA, E. (2021). OʻTKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM MUAMMOSI. *“XALQ TAʼLIMI”*, 5(1), 88-91.
2. Achilova, E. (2022). Oʻtkir Hoshimovning "Urushning soʻnggi qurboni" hikoyasidagi psixologik tasvir. *Til va adabiyot taʼlimi*, 1(1), 40-42.
3. ACHILOVA, E. (2022). SUJET, OBRAZ, USLUB XUSUSIYATLARI. *Til va adabiyot taʼlimi*, 3(1), 26-27.



4. Achilova, E. S. (2022). ARTISTIC PSYCHOLOGY ON THE EXAMPLE OF THE WORK “SPRING DOES NOT RETURN”. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1991-1994.
5. Atadjanov, G. (2020). FRIENDSHIP OF LITERATURE - FRIENDSHIP OF NATIONS. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(90), 201-203.
6. Atajanov, G. (2020). ASLIYATNI QAYTA YARATISH MUAMMOSI. *UzACADEMIA*, 1(1), 72-75.
7. Davlatova, A. R. (2021). IMAGE OF MENTALITY IN ABDULLA ORIPOV'S LYRICS. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 11(103), 904-908.
8. Davlatova, A. R. (2022). PHILOSOPHY OF ABDULLA ORIPOV'S LYRIC. *International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences*, 10(11), 259-264.
9. Davlatova, A. R. (2022). THE ROLE OF WORLD LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF ABDULLA ORIPOV'S POETIC THINKING. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1027-1032.
10. Murodova, R. (2022). Ona tili darslarida nostandart testlardan foydalanish usullari. *Til va adabiyot ta'limi*, 1(1), 11-12.
11. Murodova, R. (2022). TIL VA MADANIYATNING TALQINI ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK NIGOHIDA. *CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(5), 895-903.
12. Murodova, R. I. (2022). NON-STANDARD TESTS IN MOTHER TONGUE EDUCATION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF THEIR USE. *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)*, 10(5), 21-36.
13. Rahmanova, N. A. (2022). CHIN ELIDEK BODAPARAST ET MENI...” YOKI TASAVVUFIY CHIN MAVZUSI HAQIDA. “*FILOLOGIYA MASALALARI*, 1(1), 224-227.
14. Raxmanova, N. (2022). ALISHER NAVOIYNING EPIZODIK OBRAZLAR YARATISH MAHORATI. *International Conference on Developments in Education*, 1(1), 114-118.
15. Usmanova, Z. I. (2022). FURQATNING ALISHER NAVOIY G`AZALIGA BOG`LAGAN TATABBUSI. *CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(1), 221-225.
16. Tojiboyeva, G. A. (2021). JADID ADABIYOTIDA AYOLLAR TIMSOLI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1495-1502.
17. Tojiboyeva, G. A. (2022). MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA AYOLLAR OBRAZI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 66-70.



18. Tojiboyeva, G. A. (2022). XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA BUXORODA IJTIMOIIY-IQTISODIY, SIYOSIY MADANIY HAYOT, JADIDCHILARGA QARSHI MA'NAVIY HAMDA JISMONIY KURASH. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), 590-593.
19. Usmanova, Z. I. (2021). Она тили дарсликлари такомиллашмоқда. *Экономика и социум*, 4(83), 521-525.
20. Usmonova, Z. (2022). Zamonaviy ta'limning negizi. *Til va adabiyot ta'limi*, 2(1), 15-17.
21. Usmonova, Z. I. (2021). YANGI DAVR DARSLIKLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(11), 282-287.
22. Атаджанов, Ф. (2022). ШАКЛАН ЎХШАШ ВА АЛДОҚЧИ СЎЗЛАР МУАММОСИ. "ЎЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ВА УНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ МУАММОЛАРИ", 1(1), 561-564.
23. Ачилова, Э. С. (2021). РОЛЬ УРОКОВ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ. *Научные исследования*, 2(3), 46-49.
24. Усманова, З. И. (2022). ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ГРАММАТИК ТУШУНЧА, МАШЦ, САВОЛ ВА ТОПШИРЦЛАРНИНГ БЕРИЛИШИГА ОИД УЦУВ МАТЕРИАЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА. *CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(1), 251-259.
25. Муйдинова, А. (2022). МУВАШШАХЧИЛИК АНЪАНАСИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(3), 1042-1046.
26. Муйдинова, А. У. (2022). МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ДАВРИ ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА МУВАШШАХЛАРГА ДОИР АДАБИЙ МУНОЗАРАЛАР. "Экономика и социум", 6(97), 1-7.
27. Muudinova, A. (2022). A LOOK AT THE HISTORICAL ROOTS OF MUVASHSHAN ART. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(05), 358-361.
28. Muudinova, A. (2022). Muavashshaxchilikda an'ana va individuallik. *Til VA ADABIYOT TA'LIMI*, 4(1), 47-48.
29. Ҳикматов, Х. С. (2021). МУЛОҲИЗАҲО ПЕРОМУНИ ТАРЗИ ТАЪЛИМИ ИБОРА. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(12), 307-314.
30. Ҳикматов, Х. С. (2022). ТАҒСИРИ МУХТАСАР МЕБОЯД. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(10), 1008-1013
31. Hikmatov, H. S. (2022). Recommendations for writing test speaker in the 9 class. *Экономика и социум*, 3(94), 48-52.
32. Hikmatov, H. S. (2022). SOME COMMENTS ON THE METHODOLOGY OF TEACHING THE TAJIK LANGUAGE IN PRIMARY SCHOOL. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(05), 349-354.